

№ 8 (3) - 2023

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ
СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES
AND SOCIAL SCIENCES**



**ЭЛЕКТРОН ЖУРНАЛ
ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ
ELECTRONIC JOURNAL**

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

№ 8 (3)-2023

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

ТОШКЕНТ-2023

БОШ МУҲАРРИР:

Исанова Феруза Тулқиновна

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:

07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Укташ Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Аброр – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:

Карлибаева Раја Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўкташович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Холов Актам Ҳатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Ҳамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б., Тошкент молия институти;

Шакаров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яҳшиликов Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Носирходжаева Гулнора Абдукахаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети.

10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Салаҳутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Рахман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Сайдов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуротовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Ҳуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси

Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши хузуридаги Судьялар олий мактаби

13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети хузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази; Тайланова Шоҳида Зайнине вна – педагогика фанлари доктори, доцент.

19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Васила Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш

ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси

23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насридин Атакулович –сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич –сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси хузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхати (Рўйхатга) киритилган.

Crossref DOI:

Таҳририят Crossref DOI нинг расмий аъзоси ҳисобланади ва 10.47.390 DOI префиксига эга. Ҳар бир нашр ва илмий мақолага индивидуал Crossref DOI рақами берилади.

Google Scholar

Журнал Google Scholar (Академия) да индексацияланади.

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг
долзарб муаммолари** электрон журнали
1368-сонли гувоҳнома билан давлат
рўйхатига олинган.
Муассис: "SCIENCEPROBLEMS TEAM"
масъулияти чекланган жамият.

Таҳририят манзили:

Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:
scienceproblems.uz@gmail.com

Телеграм канал:

https://t.me/scienceproblems_uz

МУНДАРИЖА

07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ

<i>Воҳидова Комила Абдуллозизовна</i>	
“ЭЛ БАЙРОФИ” ГАЗЕТАСИ ҲАҚИДА	11-17
<i>Сулайманов Саламат Арапбаевич</i>	
ҚОРАҚАЛПОҒИСТОН МУХТОР ВИЛОЯТИДА ҚУРУҚЛИК ВА СУВ ТРАНСПОРТИ: МУАММО ВА ЕЧИМЛАР (1924-1932 ЙЙ)	18-24
<i>Raupov Холмамат</i>	
ЎЗБЕКИСТОН ҲУДУДИДА УРАН КОНЛАРИНИ ЎЗЛАШТИРИШ ТАРИХИ	25-32
<i>Мажидов Анвар Сиражович</i>	
ИМПЕРИЯ МУСТАМЛАКАЧИЛИК СИЁСАТИНИГ ТУРКИСТОН ТУБ ХАЛҚЛАРИНИНГ ИЖТИМОЙ-ИҚТИСОДИЙ ВА ФУҚАРОЛИК АҲВОЛИГА ТАЪСИРИ (СИРДАРЁ ВИЛОЯТИ МИСОЛИДА)	33-40
<i>Begamova Nasiba Xolmurzayevna</i>	
FERMER XO'JALIKLARI VA KLASTER TIZIMI UCHUN O'RTA MA'LUMOTLI MUTAXASSISLARNI TAYYORLASH TIZIMIDAGI YUTUQLAR VA MUAMMOLAR (SURXONDARYO VILOYATI MISOLIDA)	41-48
<i>Алланазаров Мурот Мирзаевич</i>	
БУХОРО ХАЛҚ СОВЕТ РЕСПУБЛИКАСИ НОЗИРЛАР ШЎРОСИ ВА МИЛЛИЙ РАҲБАР ХОДИМЛАР ФАОЛИЯТИ ХУСУСИДА	49-54
<i>Ismoilova Feruza Ibragimovna</i>	
URUSH YILLARIDA XOTIN-QIZLARNING ILM-FAN VA MADANIYAT SOHALARIDAGI XIZMATLARI	55-59
<i>Tursunov Xurshid Nasriddinovich</i>	
O'ZBEKİSTONDA MUSTAQILLIK YILLARIDA TARIXCHI KADRLAR TAYYORLASH SOHASI HUQUQIY ASOSLARINING YARATILISHI	60-64

08.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ

<i>Yuldasheva Gulnoza Abdinabiyevna</i>	
THE ROLE OF THE DIGITAL ECONOMY IN MODELING THE FINANCIAL ACTIVITIES OF ENTERPRISES	65-70
<i>Oromidinov Muzaffar Pardabayevich</i>	
DIRECTIONS FOR IMPROVING INTERNAL AUDIT IN COMMERCIAL BANKS	71-75
<i>Худайназарова Дилором Хайруллаевна</i>	
ТҮҚИМАЧИЛИК САНОАТИ КОРХОНАЛАРИНИНГ ЯШИЛ ИҚТИСОДИЁТ ДОИРАСИДАГИ РИСКЛАРИНИ СТРАТЕГИК ТРАНСФОРМАЦИЯЛАШ ИСТИҚБОЛЛАРИ	76-84

<i>To'lakov Ulug'bek Toshmamatovich, Jo'rayev Sirojiddin Muxiddin o'g'li</i>	
КО'ЧХМАС МУЛКНИ СОЛИҚҚА ТОРТИШДА ХОРИЖИЙ ДАВЛАТЛАРДА АМАЛГА ОШИРИЛГАН ИСЛОХОТЛАР	85-92
<i>Xudayberganov Dilshod Tuxtabayevich</i>	
МИНТАҚАДА ХИЗМАТ ТУРЛАРИДАН САМАРАЛИ РИВОЈЛАНТИРИШ ЙО'НАЛИШЛАРИ	93-98
<i>Turobov Sherzod Alisherovich</i>	
О'ЗБЕКИСТОН RESPUBLIKASIDA UY XO'JALIKLARI TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISHDA DAVLAT SIYOSATI	99-105
<i>Шамсиев Нодир Муратович</i>	
МЕТОДЫ ОЦЕНКИ ПОКАЗАТЕЛЕЙ КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ ПРИ АНАЛИЗЕ РЕЙТИНГОВОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ И ИХ КАЧЕСТВЕННОЕ ОПИСАНИЕ	106-110
<i>Zaripova Moxira Zarip qizi</i>	
AGRAR SOHAGA XОRIJIY INVESTITSIYALARNI JALB QILISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH IMKONIYATLARI	111-114
<i>Узайдуллаев Шерзод Шукуруллаевич</i>	
ЎЗБЕКИСТОНДА ИННОВАЦИОН ИНФРАТУЗИЛМАНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ОМИЛЛАРИ	115-121
<i>Atabayeva Karomat Rajabovna, Rajabova Maftuna Farhod qizi</i>	
О'ЗБЕКИСТОНДА ТУРИЗМ SOHASINING RIVOJLANISHI VA TAHLILI	122-127
<i>Жумаева Мухлиса Абдуғани қизи</i>	
МАМЛАКАТДА АЁЛЛАР ТАДБИРКОРЛИГИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ МЕХАНИЗМИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ	128-137
<i>Камалов Акмал Сайдакбарович, Саматов Гаффор Аллақулович</i>	
ГЕОИҚТИСОДИЙ МУНОСАБАТЛАР ШАРОИТИДА ТРАНСПОРТ ЛОЙИҲАЛАРИНИ АМАЛГА ОШИРИШГА БЎЛГАН ЁНДАШУВЛАРНИНГ ТАҲЛИЛИ	138-150
<i>Мамадиёрөв Олимжон Умаровиҷ</i>	
ОЗИҚ-ОВҚАТ ХАВФСИЗЛИГИ ТАЪМИНЛАШ НАЗАРИЯЛАРИ ЭВОЛЮЦИЯСИ	151-158
<i>Раббимов Жаҳонгир Эшбоевиҷ</i>	
ТИЖОРАТ БАНКЛАРИДА ОПЕРАЦИОН РИСКЛАРНИНГ МОҲИЯТИ, УЛАРНИНГ ЮЗАГА КЕЛИШ САБАБЛАРИ	159-164
<i>Кулибоев Азамат Шоназаровиҷ</i>	
ДАВЛАТ ТИББИЁТ ТАШКИЛОТЛАРИДА БУХГАЛТЕРИЯ ҲИСОБИНИНГ УСЛУБИЙ АСОСЛАРИ	165-174

<i>Гадоев Сўҳроб Жумакулович</i>	
ТИЖОРАТ БАНКЛАРИ КРЕДИТИНИНГ ТАЪМИНОТИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ ЙЎЛЛАРИ	175-181
<i>Бекжанов Дилмурад Йўлдашович</i>	
ЭМПИРИК ТАДҚИҚОТ НАТИЖАЛАРИ АСОСИДА ТУРИСТИК ДЕСТИНАЦИОН МЕНЕЖМЕНТ ЖАРАЁНИ ИШТИРОКЧИЛАРИ ФАОЛИЯТИНИ БАҲОЛАШ	182-193
09.00.00 – ФАЛСАФА ФАНЛАРИ	
<i>Boydadayev Abdurroxmon Tolibjon o'g'li</i>	
SHARQ VA G'ARB IRRATSIONAL FALSAFASIDA PANTEISTIK QARASHLARNING QIYOSIY TAHLILI (J.RUMIY VA F.NITSSHE FALSAFASI MISOLIDA)	194-200
<i>Xayridinov Abbosxon Anvarovich</i>	
GLOBALLASHUV JARAYONIDA MA'NAVIY MA'RIFIY INQIROZLARNING OLDINI OLİSHDA MARKAZIY OSIYO QADRIYATLARINI YUKSALTIRISH ISTIQBOLLARI	201-205
<i>Quramboyev Alisher Maxsudovich</i>	
TEMURIYLAR DAVRIDA IJTIMOIY ADOLAT TAMOYILLARINING AMAL QILISHI	206-211
<i>Jo'rayev Alisher Tulqinboyevich</i>	
JAMIYAT MILLIY ASOSLARINI MUSTAHKAMLASH – DAVLATNING USTUVOR MAQSADI	212-217
<i>Turabova Sevara Kattaqulovna</i>	
ILMIY BAHS FENOMENINING MANTIQIY- GNOSEOLOGIK MAQOMINI O'RGANISHDA KONSEPTUAL-METODOLOGIK YONDOSHUV	218-224
<i>Пардаева Марҳабо Давлатовна</i>	
АЛИШЕР НАВОЙЙ АСАРЛАРИДА ИЛМГА ОИД ҚАРАШЛАРИНИНГ НАҚШБАНДИЯ ФОЯЛАРИ БИЛАН УЙҒУНЛИГИ	225-233
<i>Qutlimuratov Sardorbek Rustamovich</i>	
NIKOH MUNOSABATLARINING TADRIJIY RIVOJLANISHI	234-240
<i>Tursunkulova Shaxnoza Tuychiyevna</i>	
DINIY MANBALARDA GO'ZALLIK TO'G'RISIDAGI FALSAFIY QARASHLAR	241-246
<i>Юсупова Феруза Зойировна</i>	
АХЛОҚИЙ ИДЕАЛ – ЁШЛАР МАҶНАВИЙ ЮҚСАЛИШИННИГ МЕЗОНИ	247-251
<i>Teshaboev Muhiddin Marifovich</i>	
IJTIMOIY ADOLATNI TA'MINLASHNING PRINSIPIAL MASALALARI	252-257

10.00.00 - ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ

<i>Soatova Nodira Isomitdinovna</i>	
LIRO-EPIK ASARLARDA POETIK FIKRNING BADIY IFODASI	258-265
<i>Narmuratov Zayniddin Radjabovich</i>	
FRAZEOLOGIK BIRLIKLER LINGVOMADANIY BIRLIK SIFATIDA	266-269
<i>Yusupova Omina Muhammadzoir kizi</i>	
DIFFERENT CLASSIFICATION OF FAIRYTALE DISCOURSE IN WORLD AND UZBEK FOLKLORE	270-276
<i>Бозорова Хулкар Одинақуловна</i>	
РУССКИЙ ЯЗЫК КАК СОСТАВЛЯЮЩАЯ СОДЕРЖАНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ПОДГОТОВКИ БУДУЩИХ СПЕЦИАЛИСТОВ	277-282
<i>Matyakubov Oybek Quralbayevich</i>	
KOGNITIV TILSHUNOSLIKDA «KONSEPT» TUSHUNCHASI	283-288
<i>Фатуллаева Камола Рахматуллаевна</i>	
ТЕРМИНЛАРНИНГ БЕЛГИЛАРИ ВА УЛАРНИНГ ТАСНИФИ	289-293
<i>Karimjonova Shahlo Ravshanjonovna</i>	
O'ZBEK TILIDA KAUZATIV FE'LLARNING YASALISH USULLARI	294-299
<i>Xamzayev Otaxon Erkinovich</i>	
INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA KASB-HUNARGA OIDMAQOLLARNING CHOG'ISHTIRMA TAHLILI	300-305

12.00.00 - ЮРИДИК ФАНЛАР

<i>Абдурахманова Нодирахон</i>	
ПРАВОВОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ СМАРТ-КОНТРАКТОВ В СНГ	306-310
<i>Сафоева Садокат Мусоевна</i>	
ЭКОСИСТЕМА СОЦИАЛЬНЫХ СЕТЕЙ: ИССЛЕДОВАНИЕ РОЛЕЙ ЗАИНТЕРЕСОВАННЫХ СТОРОН В КОНТЕКСТЕ ГРАЖДАНСКОГО ПРАВА	311-320
<i>Абдуллаева Маликабону Эркин қизи</i>	
ХАЛҚ ТАЪЛИМИ СОҲАСИДА КОРРУПЦИЯНИНГ ОЛДИНИ ОЛИШГА ОИД АЙРИМ ХОРИЖИЙ ДАВЛАТЛАР ТАЖРИБАСИНИНГ ҚИЁСИЙ ҲУҚУҚИЙ ТАҲЛИЛИ	321-330

13.00.00 - ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ

<i>Zoirova Lola Xamidovna</i>	
TIBBIYOT OLIV TA'LIM MUASSASALARIDA “INSON ORGANIZMINING RADIATSİYAGA SEZGİRLİĞİ” MAVZUSINI O'QTİSHDA RAQAMLI TEKNOLOGİYALARDAN	

FOYDALANISH	331-336
<i>Ibragimov A'lamjon Amrilloyevich</i>	
KOGNITIV SIFATLARNING UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANISHGA TA'SIRI (MAKTAB PEDAGOG XODIMLARI MISOLIDA)	337-343
<i>Madaminov Azimbek Egamberganovich, Xalillayev O'ktam Sobir o'g'li</i>	
YOSH GANDBOLCHI DARVOZABONLARNI O'YIN TEXNIKASIGA O'RGATISH	344-349
<i>Fayzullaeva Madina Abdumumin kizi</i>	
ANALYSIS OF THE POSITIVE IMPACT OF DIGITAL TECHNOLOGIES ON THE MOTIVATION AND KNOWLEDGE OF STUDENTS IN THE DEVELOPMENT OF THE EDUCATIONAL PROCESS	350-355
<i>Джумаева Хулкархан Мухаммаджоновна</i>	
ВНУТРЕННИЕ УГРОЗЫ, НЕГАТИВНО ВЛИЯЮЩИЕ НА ДУХОВНОСТЬ СТУДЕНТОВ..	356-361
<i>Islomova Madina Asqarovna</i>	
INTEGRATSIYALASHGAN SUN'IY INTELLEKT TOMONIDAN YARATILGAN CHATGPT BOT YORDAMIDA NEMIS TILI O'QITISHNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH	362-368
<i>Raxmatova Mexrinoz Majitovna</i>	
YOSHLAR MA'NAVIY SALOHIYATINI O'RGANISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI	369-373
<i>Абдукаюмова Наргиза Райимовна</i>	
ЮҚОРИ СИНФ ЎҚУВЧИЛАРИНИНГ МАДАНИЙ-ИНТЕЛЛЕКТУАЛ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ДИДАКТИК ШАРТЛАРИ	374-384
<i>Norboyev Farxod Chorshanbiyevich</i>	
KREATIVLIK VA INNOVATSIYA BORASIDA ZAMONAVIY NAZARIYALAR	385-390
<i>Borasheva Aybolgan</i>	
EXPLORING JAMES MCCROSKEY'S RESEARCH ON WILLINGNESS TO COMMUNICATE IN L1 CONTEXTS: IMPLICATIONS FOR LANGUAGE TEACHING AND LEARNING	391-398
<i>Fayzullayeva Gulchexra Sharipboyevna</i>	
KOGNITIV TADQIQOTLARNING FANLARARO TUSHUNCHА SIFATIDAGI MOHIYATI VA MANTIQIY TAHLILI	399-409
<i>Boboraximov Sanjar Malikjanovich</i>	
MAKTABDA O'QUVCHILARNI JISMONIY TARBIYALASHNING ZARURATI VA UNGA QO'YILADIGAN TALABLAR	410-414
<i>Salimova Shahlo Sayfulloyevna</i>	
XAVFSIZ TA'LIM MUHITI MONITORINGINING AHAMIYATI	415-421

<i>Sayfiddinova Jamila Ziyodulla qizi</i>	
METHODOLOGY FOR THE DEVELOPMENT OF LOGICAL REASONING IN PRIMARY SCHOOL PUPILS	422-427
<i>Xamroyev Samijon Salimovich</i>	
SPORT TO'GARAKLARI ORQALI TALABALARING JISMONIY MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH KOMPONENTLARI	428-433
<i>Kattaeva Feruza Shakirovna</i>	
DEVELOPING STUDENTS SOCIO-CULTURAL COMPETENCE BY USING SOCIO CULTURAL DISCOURSE ANALYSIS METHOD	434-441
<i>G'ofurov Azizbek Umarjonovich</i>	
BO'LAJAK JISMONIY TARBIYA FANI O'QITUVCHILARINI TAYYORLASH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH	442-447
<i>Abduraximova Umida Shuxratovna</i>	
BO'LAJAK TARJIMONLARNING LINGVOMADANIY VA KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI	448-454
<i>Obidova Gulmira Kuzibaevna</i>	
INGLIZ TILINI O'RGANISH JARAYONIDA TEXNIKA TA'LIM YO'NALISHI TALABALARIDA EKOLOGIK MADANIYAT ASOSLARINI SHAKLLANTIRISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR VA INTERAKTIV METODLAR	455-460
<i>Axmadaliyeva Xosiyatposhsho Abduxayotovna</i>	
PROFESSIONAL TA'LIM YO'NALISHLARIDA TAHSIL OLAYOTGAN O'QUVCHILARNING INGLIZ TILIDAN KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYASINI AUTENTIK MATERIALLAR ORQALI TAKOMILLASHTIRISH	461-469

09.00.00- Фалсафа фанлари

Jo'rayev Alisher Tulqinboyevich
Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti

JAMIYAT MILLIY ASOSLARINI MUSTAHKAMLASH – DAVLATNING USTUVOR MAQSADI

Annotatsiya. Mazkur maqolada jamiyatni ijtimoiy-ma'naviy rivojlantirish va siyosiy birlashtirish davlatning eng muhim ustuvor vazifasi ekanligi, bu boradagi siyosatshunoslarning fikrlari bayon etilgan. Jamiyatning milliy asoslarini mustahkamlash borasida O'zbekistonning strategik vazifalari xususida fikr-mulohazalar yuritilgan.

Kalit so'zlar: " milliy asos", " ijtimoiy dastur", " o'zbek modeli", " milliy, sivilizatsiya qaytishi", " notinch mintaqasi", "global moliyaviy inqiroz".

Jurayev Alisher Tulkinboyevich
Doctoral student of Namangan State University

STRENGTHENING THE NATIONAL FOUNDATIONS OF SOCIETY IS THE PRIORITY GOAL OF THE STATE

Abstract. in this article, the fact that the socio-spiritual development and political unification of society is the most important priority task of the state, the opinions of political scientists on this issue. The strategic objectives of Uzbekistan are outlined in strengthening the national foundations of society.

Keywords: " national basis", " social program", " Uzbek model", " national, civilization return", " troubled region", "global financial crisis".

Жураев Алишер Тулкинбоевич
Докторант Наманганского государственного университета

УКРЕПЛЕНИЕ НАЦИОНАЛЬНЫХ ОСНОВ ОБЩЕСТВА – ПРИОРИТЕТНАЯ ЗАДАЧА ГОСУДАРСТВА

Аннотация. в данной статье о том, что социально-духовное развитие и политическое объединение общества является важнейшей приоритетной задачей государства, мнения политологов по данному вопросу. Стратегические задачи Узбекистана обозначены в укреплении национальных основ общества.

Ключевые слова: «национальный базис», «социальная программа», «узбекская модель», «национальное, цивилизационное возвращение», «неспокойный регион», «глобальный финансовый кризис».

DOI: <https://doi.org/10.47390/SCP1342V3I8Y2023N29>

Kirish. Mustaqillikni qo'lga kiritib, o'z taqdirini qo'lga kiritgan davlatlar safiga qo'shilish bizlar uchun ko'p ming yillik shon-shuhratlarga boy, ammo og'ir sinovlardan o'tgan tariximizda

mutlaqo yangi davrning boshlanishi edi. Biroq bu ko'plab muammolar yechimini talab qiladiki, dunyoda uni anglab yetish va anglay olmaslik ehtimoli katta. Uning ijobati, o'z navbatida, mazkur tug'ilgan davlatning "tarixiylik darajasi", tarix bilan hamohanglik salohiyatiga bog'liq. Yangi davr bu yangi imkoniyat bo'lib, nisbatan befarq bo'lganlar, keyinchalik unga hech qachon ega bo'lmasligi ham bor gap.

Ma'lumki, bunday paytlarda tayyor ijtimoiy-siyosiy loyihaning o'zi yo'q va uni yaratish uchun boshqa xalqlarning tajribasi ham yordam bermaydi. Demakki, ko'plab savollarga javob va muammolar yechimini shu xalq aynan o'z tafakkuridan izlashi, millatning taqdiriga javobgarlik majburiyatini o'z yelkasiga olgan siyosiy rahbariyat esa uni chuqur his etmog'i lozim bo'ladi.

Odatda har bir konkret tarixiy muhit, sharoit siyosiy elitadan eng dolzarblarini ajratish va amaliyotni aynan shundan boshlashni talab qiladi. Olimlar fikriga ko'ra, "fikrlovchi mavjudot o'zida yashirinib yotgan cheksiz salohiyat qatlamlariga qat'iyat ila kirib borishi asnolarida, mutlaqo yangi sharoitda boshqa bir ruhiy muhit sari o'tish uchun "zarur qobiliyatni payqaydi". Bunday ruhiy holat qandaydir ichki ruhiyat reallikning, yangidan paydo bo'lgan "markaz"ning nurlanishi ko'rinishidir [1].

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. Yuqoridagi fikr XX-asrning atoqli faylasuflaridan biri, fransiyalik P.T.de-Sharden qalamiga mansub bo'lsa-da, bu umuminsoniy holat o'zbek davlati va rahbariyati hamda millati uchun o'ta dolzarb tarixiy davr – mustaqillikning ilk onlarida millat tafakkurida ro'y bergan alohida mavjlanish holatini yaqqol ifodalagan. Gap hal qiluvchi asnolarda, o'zbek davlati istiqboli uchun milliy asoslar mustahkamligi va bardavomligi masalasiga alohida e'tibor qaratish zarurligini oliy siyosiy rahbariyat boshqalardan ko'ra chuqurroq his etganligi xususida bormoqda.

Dunyoning har xil, qolaversa yon-atrofdagi qo'shni va tarixiy taqdiri o'xshash davlatlarning barchasida tobora kuchayib, ko'pchilik ongi-shuurini zabb etayotgan neoliberalizm va globallashuv bilan bog'liq jarayonlar ta'siriga nisbatan to'g'ri fikrga keldiki, bu O'zbekiston rahbariyati uchun hal qiluvchi, taqdirbador jihat edi. Zero, o'z davlatining buguni va kelajagi uchun faqat va faqat shu millatning o'zi, uning oliy siyosiy rahbariyati shaxsan javobgar. Ammo insoniyatning ijtimoiy-siyosiy, ilmiy va ma'naviy ravnaqi rang-barang va turli holatlarda kechganligi boisidan har bir xalq, millat va davlatning ehtiyojlari umumiy o'xshash tomonlarga qaramasdan, har biri uchun individual xarakter kasb etadi [2].

Aynan shu joyda muhim bir masala yuzaga qalqib chiqadi. Gap o'zbek yurtining qadim zamonlardan buyon ko'p millatli sotsium sifatida mavjudligi haqida bormoqda va bunday sharoitda davlat barqaror va bardavomlik kasb etishi uchun balki tub millatdagi fuqaroviylar hamjihatlik madaniyati bilan bir qatorda, baynalmilallikka ham zarur ustuvorlik berish to'g'ri bo'lgan degan gipotezaga yo'l berish joizdir. O'zbekiston barqaror davlatlardan biri, ko'p millatli zamonaviy o'zbek davlati dunyo hamjamiyati oldida obro' orttirgan ekan, uning zamirida shubhasiz o'zbek dunyoqarashi, o'zbek ijtimoiy ongi va siyosiy tafakkuri yotadi. Holbuki, yaqin kunlargacha ong va amaliyotda hukmronlik qilgan kommunistik aqidaga ko'ra, davlatning mustahkam hamda bardavomligini ta'minlash uchun uning moddiy asoslarini mustahkamlashning o'zi yetarli deb hisoblangan. Davlat uchun ma'naviy-ruhiy asoslar chetga surilgan edi.

Hozirgi davr ijtimoiy taraqqiyot tajribasi, yon atrofimizda ro'y berayotgan yangi jarayonlar ilmiy jamoatchilikning ma'naviy-ruhiy omillarga nisbatan munosabatini keskin

o'zgartirdi. Bu muammo aslida hech qachon, hech bir joyda tafakkur sohiblarining e'tiboridan chetda qolmagan. XX-asr nemis faylasufi M.Xaydegger inson va millat ruhiyati xususida so'z yuritar ekan, "inson, individ odatda chuqur o'ya tolib undagi ichki quvvat mavjlanishi asnolarida barcha narsa va hodisalarining mohiyatini anglab yetadi" [3], degan xulosaga keladiki, bu millatga ham taalluqli.

Yuqorida keltirilgan umumiy holat faqat individ ruhiy holatining ko'rinishi emas. Balki uni butun boshli millatga, hatto sivilizatsiyaga nisbatan ham qo'llash joizdir. Zero, millat yoki sivilizatsiyaning ruhiyati, dunyoni idrok etish quvvati avvalambor ong va tafakkurida namoyon bo'ladi. Endigma mustaqil, mutlaqo boshqa muhit va davrda yashashga ko'nikayotgan o'zbek davlatining uzoq istiqboliga nazar tashlar ekan, oliv rahbariyat "Buyuk tarixda hech narsa izsiz ketmaydi. U xalqlarning qonida, tarixiy xotirasida va amaliy ishlarida namoyon bo'ladi" [4] deganda haq edi.

Va shu asosda davlatning buguni va istiqbolini ta'minlash uchun uning milliy asoslarini mustahkamlash yangi davrning bosh strategiyasiga aylandi. O'zbek tiliga davlat tili maqomini berish, tamomila yangi davlat ramzlarining joriy etilishi, umumxalq bayramlarining qayta tiklanishini hukumat milliy an'analar, asoslar bilan bog'lashni dolzarb vazifaga aylantirdi.

O'zbekiston rahbariyati tutgan aynan shu yo'l, ya'ni davlatning milliy asoslariga ustuvorlik berilishi bu o'zbeklar ongi, tafakkurining o'ziga xos tomoni bo'lib, boshqa mamlakatlarda bu jihat boshqacha ko'rinish berishi ham mumkin. Bu O'zbekistonning tanlovi. Zero, barcha millatlar, konkret ijtimoiy vaziyat hamda jahon tajribasidan chiqqan holda, qaysi tomonga qaysi paytda strategik ustuvorlik berishni o'zları hal qiladi.

Muhokama. Tarixdan ma'lumki, turli sabablarga ko'ra o'zbeklar an'anasi, udumlari, ma'naviy qadriyatlari har doim qiyinchiliklarga qaramasdan o'zini, o'zligini namoyish eta olgan. Boshqalar esa uyg'unlik va o'zlikni saqlashda tub xalq atrofida hamjihatlikning eng baland cho'qqilariga chiqishgan. O'zbeklar ongi, tafakkurida shakllangan davlatchilik g'oyasini ular ham o'ziniki deb qabul qilgan. Bu jihat yangi davrda Prezident Sh.Mirziyoyevga "ko'zlagan barcha maqsad vazifalarimizga albatta yetamiz. Bu borada men avvalo ko'p sinovlardan yorug' yuz bilan o'tgan olijanob xalqimizning mustahkam irodasi va mustahkam salohiyatiga ishonaman" [5], deya qat'iy aytish imkoniyatini yaratdi.

Umuman olganda, millat va davlatdan qaysi biri oldin paydo bo'lgan degan masalaga mutaxassislar allaqachon munosabat bildirib, muammoning ayrim qirralariga oydinlik kiritishgan bo'lsa-da, baribir u hanuzgacha murakkabligicha qolmoqda. Buning sababi mazkur global muammo tarixning ko'plab bosqichlarida dolzarblik kasb qilib kelganligi bilan bog'liq. Millat va davlat munosabatidagi uyg'unlik, ya'ni o'zaro bog'liqlik nuqtai nazaridan kelib chiqilsa, biz uchun millat va davlat bir-birini to'ldirgan va bir-birini o'zaro vujudga keltirganligi muhim. Shu munosabat bilan fransuz tarixchisi Ernest Renann "Ulkan hamjihatlik ifodasi sifatida millat qahramonona o'tmish, bugungi yagona xohish-iroda va nihoyat, kelajakda esa umumiylar dasturini taqozo etadi" [6], – degan e'tiborga loyiq bir xulosani o'rtaga tashlaydi.

Muhimlik shundaki, yuqorida zikr etilgan millatga xos jihatlarni davlatchilikda ham ko'rishimiz mumkin. Bunday vaziyatda, tabiiyki, ularning qachon "dunyo yuzini ko'rganligi" bilan bog'liq masalalar chetga surilib, o'rtadagi umumiylilik va shu umumiylikni shakllantirgan asoslar bilan bog'liq masalalar ustuvorlik kasb etadi.

Aslida davlat va millat ijtimoiy reallik hamda g'oya sifatida biri birini boyitib, o'zaro barhayotlik baxsh etib bordi. Davlatning ham, millatning ham ijtimoiy negizlari va turtkilari bir xil: har ikkalasi ham "ijtimoiy dastur" [7] sifatida quyidan yuqoriga qarab rivojlanishdek tabiiy marom natijasidir. Davlatning pirovard maqsadi – ijtimoiy tartibot va hamjihatlikka erishishi o'zining milliy asoslarini mustahkamlash bilan chambarchas bog'liq. Millat, davlat va umuman insonning hayot maskani bilan bog'liq muammolarning chuqur falsafiy tahlilini yaratgan alloma I.Kant shunday yozadi: "davlatlar bor kuchini o'zining tor, birovlarni bo'ysundirishga qaratilgan niyatlaridan xalos bo'lishga qaratmas ekan, fuqarolarning tafakkur tarzini takomillashtirish haqida o'yamas ekan, u holda ularning o'z xalqi xususida fikrida bir ijobiy o'zgarish borasida so'z yuritish xom xayollikdan boshqa narsa emas". Bu xulosa shubhasiz millatga ham tegishli.

Demak, davlat bilan millat har biri alohida ijtimoiy reallik, hodisa bo'lishi barobarida, pirovard maqsad va intilishlarining yo'nalishida ulkan mushtaraklik mavjud. Davlatni davlat qiladigan millat, millatni ko'kka ko'taradigan, uning ichki salohiyatidan bashariyatni voqif qila oladigan kuch esa davlat.

Zero, jamiyat hayoti, undagi muttasil o'zgarishlar vertikal hamda gorizontal, ya'ni keng ko'lam kasb etishi, aniq "ijtimoiy dasturlar" ifodasi va ularning amalga oshishi mahsulidir. Dolzarb tarixiy asnolarda davlatga o'z barhayot va bardavomligi yo'lida ana shu o'z-o'zidan "shakllangan" ijtimoiy dasturiy maqsad va vazifalar orasidan strategik hayot-mamot ahamiyatiga ega bir nechtafiga ustuvorlik berish mas'uliyati yuklatiladi, davlat ushbu mas'uliyatni chuqur his etsa va uning uddasidan chiqishga bel bog'lasa – shuning o'zi yetarli. Barcha bosqichlarda borgan sari dolzarblik kasb etib turgan o'zbek davlati, davlatchiligining milliy asoslarini mustahkamlashga qaratilgan strategik vazifani ham ana shu doirada qarash joiz. Shu munosabat bilan Prezident Sh.Mirziyoyev o'zining bir chiqishida taraqqiyotning "o'zbek modeli" bilan "zamonaviy davlat barpo etish"ni qo'shaloq bir jarayon sifatida qaraganligi e'tiborni tortadi [8].

Natijalar. Umuman, davlatning oldidagi dasturiy vazifalarning bari muhim. Ammo ma'lum bir vaqt kesimida ulardan biri yoki ikkitasining dolzarblik darajasi oshadi va bu esa, o'z navbatida, insoniyat umumiyligi boshdan kechirayotgan davr xarakteri bilan ham o'lchanadi. Prezidentimizning turli darajalardagi chiqishlari, intervyu hamda nutqlariga diqqatimizni qaratsak, uning davrga nisbatan "eski zamonning umri tugab, yangi zamon boshlanayotgan lahzalar", "milliy tariximizning eng keskin va tahlikali davri", "notinch zamon", "notinch mintaqa", "global moliyaviy inqiroz", "xavfsizlik va barqarorlikka tahdidlar kuchayib borayotgan", "turli mintaqalarda hamon davom etayotgan qurolli to'qnashuvlar" singari konseptlarning ta'kidlanishi, yangi o'zbek davlati bugun o'zini qay tarzda namoyon etmog'i, davlat strategiyasini belgilashda davrdan chiqishning ma'no-mazmuni o'z o'zidan ayon bo'ladi.

Prezident fikrlaridan yaqqol ko'zga tashlanadigan uchta muhim jihat: davlatchiligmizni yangi qirralar bilan yanada boyitish, davlatimizning milliy asoslarini yanada mustahkamlash va nihoyat, tarixiy taraqqiyotning bugungi bosqichini bir biri bilan o'zaro bog'liqlikda ko'rishning istiqbolimiz bilan chirmashib ketganligi, bu birdan bir yagona davr hukmi ekanlidir. Milliy tilimiz, milliy merosimiz, milliy modelimiz, milliy qonunchiligmiz, milliy davlatchiligmiz, milliy boshqaruvi uslubimiz, milliy mentalitetimiz, milliy manfaatlarimiz tizimi, milliy ta'limgartbiya, milliy madaniyat va dunyoqarashimiz, milliy falsafamiz va boshqa ko'plab milliy jihatlarimizning zamon ehtiyojlari bilan hamohangligi jahon hamjamiyati diqqat-e'tiboriga

tushgan ekan, bu milliy strategik ustuvorligimizning ham bardavom va barhayotligining yaqqol guvohidir.

Darhaqiqat, bugun mamlakatimiz alohida bir tarixiy, kerak bo'lsa yangi davrni boshdan kechirmoqda. Zero, har bir yangi davr ijtimoiy-siyosiy tarsnformatsiyasi har qanday xalqqa, jamiyatga, qolaversa har bir ongli kishiga jiddiy mas'uliyat yuklaydi. Hozirgi kunda texnik fanlarda dastlab tasdig'ini topib, so'ngra ijtimoiy fanlarda ham keng qo'llanilib kelayotgan sinergetika nazariyasiga ko'ra, jamiyat taraqqiyotini bir maromda ushlab turadigan "markaziy blok"da ro'y bergen o'zgarish, uni yangi pog'onaga ko'taradi, demak, u mutlaq boshqa sharoitda faoliyatini davom ettiradi.

Bunday paytlarda tamomila yangi me'yorlar, qadriyatlar, g'oyalar paydo bo'lib, jamiyat ritmi aynan shular doirasida faoliyat ko'rsata boshlaydi. Davrimizning atoqli faylasuflaridan biri Vyacheslav Styopin bunday davrni yangi qadriyatlar "o'sish nuqtalarini" keltirib chiqaruvchi davr [9] deb hisoblaydi. Bunday asnlarda eski ming yilliklar mobaynida davlatga beminnat kuch-quvvat ato etib kelgan, ijtimoiy-tarixiy qadriyatu tamoyillar, yo'l-yo'rqlar saqlanib qolsa-da, ammo u yangi holatga o'tadi, o'z salohiyatini yangi sharoitda yangicha tarzda namoyon etadi. Shunday omillardan biri davlatning milliy poydevori hisoblanadi. Davlatimizning yanada barhayotlik va bardavomlik kasb etishi aynan shu omilga ko'proq ehtiyoj sezilayotganligi shundan. Yuzaki qaraganda davlatning milliy asosi mavhum shaklga ega. Lekin unda shu qadar ulkan kuch-qudrat yashirinki, uni e'tiborsiz qoldirib, merkantilizm, nigelizm, neoliberalizmga ruju qo'ygan davlat murakkab holatga tushganligidan bashariyat xabardor. Jahon miqyosida "milliy, sivilizatsion tomirlarga qaytish"ga da'vat, davlatga milliy qiyofa berishga bo'lgan ehtiyoj va zarurat bugungi bosqich uchun jiddiy masala sifatida ijtimoiy-siyosiy kun tartibiga qo'yilayotgani, unga strategik ustuvorlik deb qarash tobora kuchayib borayotganligi beziz emas. Davlatga instrumental yondashuv, uni haddan ziyod moddiylashtirish, unda yashirinib yotgan buyuk ruhiy quvvat, ehtiyoj va insoniylikka nisbatan e'tiborsizlik, u ko'proq dunyoqarash natijasi va in'ikosi ekanligini unutish insoniyatni qiyin ahvolga tushirib qo'ydi.

Xulosa sifatida aytadigan bo'lsak, davlat samarali birlashtiruvchi nufuz kasb etishi uchun, eng avvalo bunyodkor milliy asosga tayanishi zarur. Milliy tayanch tashqaridan sun'iy kiritilgan rasmiyatchilik, qandaydir nazariya yoki konsepsiyalarga moslashish emas, u davlatning ibtidosidan to intihosiga qadar mavjudlikdagi immanent xususiyat. Milliy asos faol ekan – davlat ham xuddi shunday, ular biri birini o'zaro to'ldiradi, boyitadi. Davlat faqat shu asosda aynanlik kasb etadi, degan fikrdamiz.

Адабиётлар/Литература/References:

1. Де-Шарден П.Т. Феномен человека. – М., 1997. – С. 136.
2. Кутовой Д.А. Сущность государства информационного права: дихотомия властных отношений // История государства и права. – 2018. – №4. – С. 78.
3. Хейдеггер М. Основные теории метафизики // Вопросы философии. – 1989. – №9. – С. 117.
4. Каримов И. Ўзбекистоннинг сиёсий-ижтимоий ва иқтисодий истиқболининг асосий тамойиллари // Ватан саждагоҳ каби муқаддасдир. – Б. 7.
5. Мирзиёев Ш. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. – Тошкент: «Ўзбекистон», 2018. – Б. 78.

6. Федотова Г.П. О национальном покаянии // Федотов Г.П. Судьба и грехи России. В 2-х т. – Санкт Петербург, 1991. – С. 43.
7. Стёpin B.C. Философская антропология и философия культуры. – M., 2015. – С. 451.
8. Мирзиёев Ш. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – хар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қоидаси бўлиши керак // Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1-жилд. – Тошкент: «Ўзбекистон», 2018. – Б. 233.
9. Стёpin B.B. Философская антропология и философия культуры. – M.: «Альма Матер», 2015. – С. 403, 421, 452.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

№ 8 (3)-2023

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг
долзарб муаммолари” электрон
журнали 2020 йил 6 август куни 1368-
сонли гувоҳнома билан давлат
рўйхатига олинган.**

**Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
масъулияти чекланган жамияти**

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой
тумани, Кичик Бешёғоч қўчаси, 70/10-
уй. Электрон манзил:
scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:
(99) 602-09-84 (telegram).